

SIRDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2020-yil 1- iyul holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 274-son qaroriga muvofiq korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar vaqulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizdaqulay ishbilarmonlik muhitini yaratishva tadbirdorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalgalashirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirdorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyatga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxona va tashkilotlar soni

(2020-yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

15 498

123,8 %



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

14 388

122,7 %



Yangi tashkil etilgan korxonalar
(2020-yilda)

1 818



114,7 %

Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalgalashirishda qoladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vegar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijoratkorxonalar soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatimas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatları bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan, ishtirokchilari jamiyat majburiyatları bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladi.

Faoliyat ko'rsatayotgankorxona va tashkilotlar soni (1-iyul holatiga ko'ra)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyatি:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat-aksiyadorlik jamiyatи hisoblanadi; aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatları bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamanagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatları bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lamanagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyatı ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar-iyun oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyatturlari bo'yicha, yanvar-iyun oylarida)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi

(2020-yil yanvar-iyunoyalarida, umumiy sonidagi ulushi)



2020-yilning yanvar-iyun oylarida 1 818 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar–1509 ta, xususiy korxonalar–111 ta, oilaviy korxonalar–132 ta, muassasalar–10 ta va boshqalar–56 tani tashkil etdi.

Oilaviy korxonalar soni (1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-iyul holatigako'ra 335 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 179 taga yoki 214,7% ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 281 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 134taga yoki 191,1%ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020-yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 132 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 71 taga yoki 216,4% ga oshganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-iyul holatigako'ra, birlikda)


Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yilning 1-iyul holatiga ko'ra 9 447 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 596 taga yoki 39,8% ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotganmas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 8 837 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2466taga yoki 38,7% ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilganmas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 509 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 232 taga yoki 18,2%gako'payganligini ko'rish mumkin.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni (2020-yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra 178 tani tashkil etib, ulardan 171 tasi yoki 96,0 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 42 taga yoki 132,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020-yil yanvar-iyun oylarida Viloyatimizda 14 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonava tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyun oylarida, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020-yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
Jami	63	71	97	129	171
shu jumladan:					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	4	4	6	4	14
Sanoat	44	52	67	88	107
Qurilish	1	2	5	7	11
Savdo	8	8	11	18	24
Tashish va saqlash	2	2	4	5	4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	-	-	1	1	1
Axborot va aloqa	-	-	-	1	2
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-	-	-
Boshqa turlar	4	3	3	5	8


**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati
cheklangan jamiyatlar soni**
(1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)



**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni**
(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
Jami	3 465	4 203	4 833	6 371	8 837
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	526	678	788	963	1 461
Sanoat	506	668	737	1 077	1 345
Qurilish	343	409	551	775	1 052
Savdo	1 093	1 344	1 492	1 976	3 075
Tashish va saqlash	310	441	461	473	479
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	134	178	229	405	552
Axborot va aloqa	61	64	65	71	89
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	25	24	33	41	72
Boshqa turlar	467	397	477	590	713

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
Jami	59	77	147	281
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	11	8	21	52
Sanoat	27	34	69	128
Qurilish	-	-	-	1
Savdo	12	15	23	41
Tashish va saqlash	-	-	2	1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4	14	24	45
Axborot va aloqa	1	1	1	2
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-	-
Boshqa turlar	5	5	8	11


**O'zbekiston Respublikasida MDH davlatlarining kapitali
ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2020-yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Rossiya Federatsiyasi	26	18	8
Qozog'iston Respublikasi	16	11	5
Ozarbayjon Respublikasi	2	1	1
Qirg'iz Respublikasi	2	1	1
Tojikiston Respublikasi	8	5	3
Ukraina Respublikasi	1	1	-
Belarus Respublikasi	2	2	-

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni (2020-yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



16


Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2020-yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Sirdaryo viloyati	171	132	39
Guliston sh.	39	26	13
Shirin sh.	5	5	-
Yangiyer sh.	20	8	12
Oqoltin	3	1	2
Boyovut	7	4	3
Sayxunobod	11	7	4
Guliston	4	4	-
Sardoba	8	5	3
Mirzaobod	11	6	5
Sirdaryo	54	43	11
Xovos	8	4	4

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Sirdaryo 54 ta (31,6 %), Guliston shahrida 39 ta (umumiyligi miqdoridagi ulushi 22,8 %), Yangiyer shahrida 20 tani (11,8%), Sayxunobod 11 ta (6,5 %) hamda Mirzaobod 11 ta (6,4 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020-yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




2020-yil 1-iyul holatigako'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Guliston shahri (28,8 %), Sirdaryo(14,6 %), Sayxunobod (8,1 %), Boyovut (8,0 %), Guliston (7,5 %), Mirzaobod (8,1 %), Yangiyer shahri (7,0 %), Oqoltin (5,4 %),Xovos (5,6 %), Sardoba (4,5 %), Shirin shahri (2,4 %)hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2020-yil yanvar-iyun oylarida, birlikda)

2020-yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Guliston shahri (21,2 %), Sirdaryo (11,1 %), Sayxunobod (8,7 %), Boyovut (9,5 %), Guliston (6,9 %), Mirzaobod (10,4 %), Yangiyer shahri (5,4 %), Oqoltin (9,9 %), Xovos (7,0 %), Sardoba (7,2 %), Shirin shahri (2,8 %)hissalariga to'g'ri keladi.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2020-yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2020-yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



2020-yil 1-iyul holatigako'ra faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Guliston shahri (25,1 %), Sirdaryo (16,6 %), Sayxunobod (8,5 %), Boyovut (7,1 %), Guliston (6,8 %), Mirzaobod (8,4 %), Yangiyer shahri (8,8 %), Oqoltin (5,1 %), Xovos (6,2 %), Sardoba (4,7 %), Shirin shahri (2,4 %)hissalariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi


(2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021-yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yichasoni



(2020-yilning yanvar-iyun oylarida, birlikda)



2020-yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar, hududlar kesimida taqsimlanganda Guliston shahri (9,8 %), Sirdaryo (7,6 %), Boyovut (4,5 %), Guliston (12,6 %), Mirzaobod (4,5 %), Yangiyer shahri (0,7 %), Oqoltin (53,4 %), Xovos (7,6 %), Shirin shahri (1,5 %) ulushga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2020-yilning yanvar-iyun oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-

ma'lumotnoma tusidagi, vaqtı-vaqtı bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumotkelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagи “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot shows the official website of the State Statistical Committee of Uzbekistan. The main header reads "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". The left sidebar has a "RASMIY STATISTIKA" section with various links like "Elon qilish taqvimli", "Metamalumotlar", etc. The central part shows a modal window for "Statistik klassifikatsiyalar" (Statistical classification) under "Xizmatlar ro'yxati". It lists "Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati" and "Korxona pasporti". A form field "STIR kodini kriting" is present, along with a placeholder "Kodni yangilash uchun razmga bosing" and a "Qidiruv" button. To the right, there's a sidebar titled "FOYDALI MA'LUMOTLAR" with links to various reports and publications.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uzrasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel.:(67)236-86-37**